



The history of sentence structure and study

Farangiz NEMATILLOEVA¹

Bukhara State Medical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2024

Received in revised form

10 January 2024

Accepted 25 February 2024

Available online

25 May 2024

Keywords:

sentence,
syntax-semantics,
comparative typology,
typology,
semantics.

ABSTRACT

In this work, the main goal is to study the features and patterns of constructing sentences in English and Uzbek languages, identifying their similarities and differences, as well as their comparative analysis from a cognitive-grammatical point of view. One of the key aspects of studying the syntactic-semantic and structural organization of languages is conducting a comparative analysis. In such a study, it is necessary to determine the structural and semantic features of sentences using examples of related and unrelated languages.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2-pp135-139>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Gap tuzilishi va uning o'rganilish tarixi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

gap,
sintaktik-semantik,
qiyosiy tipologiya,
semantika.

Ushbu ishda ingliz va o'zbek tillaridagi gap tarkibinig o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, ularning bir biridan farqli yoki o'xshash tomonlarining mavjudligini hamda ularni kognitiv grammatik nuqtai nazardan qiyoslab o'rganish maqsad qilib olingan. Tillarning sintaktik-semantik va strukturaviy tarkibini o'rganishning asosiy omillaridan biri bu tillarni qiyosiy o'rganishdir. Qiyosiy tipologik tadqiqotni olib borishda qardosh bo'lgan va qardosh bo'lmagan tillar misolida olib borilishi, ma'lum gap tarkibida strukturaviy, semantik xususiyatlarini aniqlash uchun ahamiyatli o'rinni egallab turadi.

¹ Teacher, Bukhara State Medical Institute. E-mail: nematilloevafarangiz@gmail.com

Структура предложения и история его изучения

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

предложение,
синтаксис-семантика,
сравнительная типология,
семантика.

В данной работе основной целью является изучение особенностей и закономерностей построения предложений английского и узбекского языков, выявление их сходств и различий, а также их сравнительный анализ с когнитивно-грамматической точки зрения. Одним из ключевых аспектов исследования синтаксисо-семантической и структурной организации языков является проведение сравнительного анализа. При таком исследовании необходимо на примерах родственных и неродственных языков определить структурные и семантические особенности предложений.

Tillarning sintaktik-semantik va strukturaviy tarkibini o'rganishning asosiy omillaridan biri bu tillarni qiyosiy o'rganishdir. Albatta, bu borada ma'lum darajada ishlar olib borilgan bo'lsa-da, yetarli darajada ishlar amalga oshirilgan deyish qiyin. Olib borilgan ishlar sirasiga marhum professor olim J. Bo'ronovning "Ingliz-o'zbek tillari qiyosiy tipologiyasi" qo'llanmasi, professor O'.Q. Yusupovning risolalari, Sh. Ashurovning "Ingliz va o'zbek tillarida kesim tipologiyasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi va shu kabi bir necha ishlarni keltirish mumkin.

Shunga ko'ra, tilshunos olimlar gap tadqiqotlari borasida tilning ichki (ya'ni bir tilning o'ziga tegishli) va tashqi (qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar bilan qiyosi) masalalariga tegishli ko'p muammolarni ko'rishgan va ulardan ko'pi o'z yechimini topgan.

Shunday bo'lsa-da, har bir tilda, jumladan, ingliz va o'zbek tillarida gap strukturasi zamonaviy tilshunoslik sohalarida kesimida, pragmatik, kognitiv nuqtai nazardan tahlili etish, o'rganish ham murakkab bo'lib, jiddiy yondashuvni va ko'p tahlillarni talab qiladi.

Shuning uchun ham, eng avval har ikkala tilda ham tilshunos olimlarning gap strukturasi borasida paydo bo'lgan fikrlarini, nazariyalarini solishtirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu gap doirasi haqidagi fikrlar, tushunchalarni va nazariyalarni o'zaro qiyoslab o'rganilishi tadqiqotni ma'lum bir yo'nalishda olib borishga imkon yaratadi.

Gap tuzulishi, tarkibi turli tillarda o'ziga xos qonun-qoidalar asosida turlicha shakllanadi. Shunga ko'ra so'zlarning yasalishi, jumladan, gap tarkibining shakli masalasining murakkab tomonlarini o'rganish, ilmiy izlanishlar olib borish natijalari ham har xildir. Gap tarkibi va uning tipologik talqini hamda alohida ingliz va o'zbek tillarida ham ko'p tilshunos olimlar o'z ishlarini ularning turli jihatlarini o'rganishga bag'ishlaganlar. Masalan, ular sirasiga J. Bo'ronov, O'.Q. Yusupov, L.S. Barxudarov, B.A. Ilish, A. Hojiev, Sh. Rahmatullaev va boshqalar katta hissa qo'shishgan.

O'zbek tilshunosligiga nisbatan ingliz tilshunosligida gap tarkibi keng o'rganilganligi olib borilgan tadqiqotlar va olimlarning ilmiy izlanishlaridan ko'rinib turadi. Ya'ni ingliz tilida gap tarkibi tuzilishi tilning ichki masalasi sifatida ham keng o'rganilishi bilan birga, kognitiv, diskursiv tomonlari hamda tashqi masalasi sifatida ham juda ko'plab tillar bilan qiyoslab o'rganilganligi va buning natijasida tildagi yangi

imkoniyatlar yoritib berilganini ko'rish mumkin. Hozirgi kunda ko'plab ingliz tilshunoslari gap tarkibi borasida sezilarli ishlarni amalga oshirganligini va buning natijasida keltirilgan ahamiyatli nazariyalar paydo bo'lganining guvohi bo'lish mumkin. Bunga misol qilib, R. Langakerning "Kognitiv grammatikasi"ni keltirish mumkin.

Tilshunos olimlardan N. Chomsky, J.D. Fodor, Ronald W. Langacker, Rappaport Hovav, S.C. Dik, A.-J. Greymas, V.A. Plungyan va M.A. Abdurazzokov, P.A. Abdurahmonov, M. Asqarova hamda shu kabi ko'plab tilshunoslar gap tarkibining turli tillar, jumladan ingliz, o'zbek tillaridagi imkoniyatlarini ochishga harakat qilishgan. Bular qatori yana ko'plab tilshunos olimlarning qimmatli ishlarini aytib o'tish mumkin.

Gap tarkibining har ikkala tilda ham alohida o'rganib chiqilgan tomonlari keyingi qilinadigan ishlar uchun nazariy va amaliy jihatdan imkoniyatlar yaratadi. Ya'ni tilshunos olimlarning gap tarkibini kognitiv grammatika termini haqidagi qarashlari, so'z birikmalari bilan o'xshash va farqli tomonlari haqidagi fikrlari, sintaksis tarixiy taraqqiyoti, sintaktik tasniflari haqidagi mulohazalari gap tarkibi nazariyasi tadqiqotlarining davom etishida katta ahamiyatga ega.

O'zbek tilida gap tarkibi bo'yicha qilingan ishlarda o'zbek tilshunoslaridan tashqari "O'zbek tili grammatikasi masalalari"ni o'rgangan akademik A.N. Kononov., professor V.V. Reshetov kabi rus olimlarining ishlari ham ahamiyatlidir.

Bu olimlar o'zbek va rus tillarining turli sohalarini qiyoslab o'rganish orqali tildagi ko'plab imkoniyatlarni yoritib berishgan. Jumladan, ular tilning morfologik qatlamidan tashqari gap tarkibini strukturaviy shakllarini, sintaktik aloqadorlik tomonlarini ham o'rganishgan.

Ingliz va o'zbek tillarini qiyoslab o'rganishda o'zining sezilarli hissasini qo'shgan tilshunos olim J.B. Bo'ronovning olib borgan tadqiqotlari ham ingliz va o'zbek tillarining o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini keng ma'noda yoritib berishda qilingan ishlardan biridir. Ushbu olimning ingliz tili bilan turkiy tillarning qiyosiy tipologiyasi haqidagi kitobida ham turli tillar sistemasidagi tillarni solishtirib o'rganishda muhim qiyosiy metodlarni ko'rsatib bergan.

Ushbu tadqiqotimiz gap tarkibi haqidagi ikki turli sistemadagi, ingliz va o'zbek tillaridagi nazariyalarni o'zaro qiyoslab o'rganishda ahamiyati katta.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, gap tarkibi borasida har ikkala qiyoslab o'rganilayotgan tillarda ham, ko'p ishlar qilingan va olimlar o'zlariga xos fikr va mulohazalarini bayon etishgan. Masalan, o'zbek tilida qo'shma so'zlarning yasalishi haqida A.Hojiev o'zbek tilidagi sintaktik strukturasi o'z munosabatini bildirar ekan, u nafaqat o'zbek tilida balki turkologiyada muhim o'rin tutadigan masalalardan biri ekanligi haqida aytadi. Qolaversa, gap tuzulishi borasida qilingan ishlarda sintaktik aloqalarning o'ziga xos xususiyatlari ularning sodda gap birikmalaridan farqi to'la tadqiq etilmaganligi haqida yozadi.

Demak, turkologik sintaksisga bag'ishlangan adabiyotlarda gap tarkibi borasidagi yechimini kutayotgan masalalar talaygina ekanligidan dalolat beradi. Bu masalalar qiyosiy tadqiqotlarni amalga oshirganda yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, gap tarkibini qiyosiy o'rganishda eng avval qiyosiy tipologiya nazariyasiga murojat qilishga to'g'ri keladi, ya'ni boshqa tillar bilan qiyoslab o'rganishda bu juda ham samara berishi mumkin. Ingliz tilshunosligida qilgan nazariy ishlarga asoslanish mahsuldor omil bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunga kelib sintaktik tahlillarning yangicha sathlari vujudga keldi. Bu borada, rus tilshunosi A.M. Muxin tomonidan asos solingan va keyinchalik O'zbekistonda prof. O'. Usmonov rivojlantirgan noanaviy tahlillarni misol tariqasida keltirish mumkin. Mazkur sintaktik tahlil yo'nalishining asosiy xususiyatlaridan biri, bu strukturaviy birliklarning ma'no ko'lami e'tiborga olinadi, ya'ni ma'lum sintaktik vazifani bajaruvchi elementlar o'z semantik tarkibiga ko'ra turlicha vazifalarni ifodalashi asosiy planga ko'chadi.

Zamonaviy boshqa adabiyotlarda (R. Lengaker va boshqalar) gap tarkibi talqini kognitiv jarayonlarda ifodalanishi haqidagi munosabatlarini ingliz tilida gap doirasining kognitiv jihatdan yondashilishish mumkinligi nazariyasining vujudga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Gap strukturasi masalalari haqidagi masalalar A.I. Smirniskiy, I.V. Arnold ishlarida ham e'tibor qaratilgan. Keyingi ishlarida u shunday yozadi: *«Синтаксическая функция единицы выявляется на основании ее местоположения в структуре предложения по соотношению с другими составляющими. В английском языке существует строгий порядок слов: подлежащее, сказуемое, дополнение. Эта особенность английского языка делает английские структуры легкими для построения, но трудными для расшифровки, так как изолированная форма обычно малопоказательна и установление ее грамматического статуса достигается только с помощью проверки соотношения данной единицы с окружающими ее формами»*.

Umumiy planda ingliz tili va shuningdek boshqa yevropa tillari grammatikasi grek va rim tillaridagi grammatikaga bag'ishlangan ishlarga asoslanilgan, shuning uchun ham grammatika tadqiqotlarining klassik yo'nalishi tarafdorlaridan biri bo'lgan G.Suit ingliz tili grammatikasi tadqiqida asosiy e'tibor shakl va funksiyadan tashqari so'zlarning ma'nolariga ham e'tibor qaratilishi lozimligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. М., 1983. 266с. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. Дарслик, Тошкент, "Ўқитувчи", 1973. 284 б. Buranov J.B., Yusupov U.K., Iriskulov M.T., Sadikov A.S. The grammatical structures of English, Uzbek and Russian. Part I. "Ukituvchi". -Tashkent, 1986. -310 p.
2. Юсупов. У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: Фан, 2007. –126 с
3. Бархударов. Л. С. Очерки по морфологии современного английского языка. – Москва, 1975. – 156 с.
4. Ильиш Б.А. Строй современного английского языка. 2-е изд. – Л., 1971. – 366 с.
5. Ҳожисв А. Феъл. –Тошкент. 1973. –192 б.
6. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. "Университет". –Тошкент, 2006. – 464 б.
7. Ronald W. Langacker. Cognitive Grammar. Oxford University Press. 2008. -571 p.
8. Chomsky,N. Conditions on Rules of Grammar, Linguistic Analysis 2: 1976. –P 303–51.
9. Rappaport Hovav, M. 1995. *Unaccusativity: At the syntax-lexical semantics interface*. Cambridge: MIT Press. -437 p.

10. Dik, S.C. *The Theory of Functional Grammar*. 2 Vols. Berlin: Mouton de Gruyter. 1997. -248p.
11. Греймас А.-Ж. Структурная семантика: Поиск метода / Перевод с французского Л. Зиминной. — М.: Академический Проект, 2004. — 368 с.
12. Плунгян В.А. Почему языки такие разные. М., АСТ-ПРЕСС КНИГА, 2010. -272 с.
13. А.Н. Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка. Академ наук СССР. Москва. Ленинград, 1960.
14. Ж. Бўронов. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. «Ўқитувчи» нашриёти Тошкент -1973
15. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков: Учеб. Пособие для пед. Ин-тов.- М.: Высшая школа 1983.
16. Ronald W. Langacker. *Cognitive Grammar*. Oxford University Press. 2008. -571 p
17. А. И. Смирницкий. Лексикология английского языка. М., 1959, 57 -58 б.
18. А. И. Смирницкий. Грамматика английского языка. М., 1955. 134с.